

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

ABDIQULOVA DILNOZA ABDUKADIROVNA

**AGRAR SOHANING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA
TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023 yil

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Economics Sciences**

Abdiqulova Dilnoza Abdukadirovna

Agrar sohaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ekonometrik
modellashtirish..... 5

Абдикулова Дилноза Абдукадировна

Эконометрическое моделирование влияния аграрного сектора на
макроэкономические показатели..... 25

Abdikulova Dilnoza Abdukadirovna

Econometric modeling of the impact of the agricultural sector on
macroeconomic indicators 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

ABDIQULOVA DILNOZA ABDUKADIROVNA

**AGRAR SOHANING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA
TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent shahri – 2023 yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2747 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent moliya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Utanov Bunyod Kuvandikovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar: Abdug'aniyev Otabek Allajonovich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Mamadjanov Abrorali Ashiraliyevich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «14» 09 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100174, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. tel. (71) 239-28-72), (71) 239-28-72, faks: (71) 239-28-72), e-mail: tseu@tseu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1334 -raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. tel. (71) 239-28-72), (71) 239-28-72, faks: (71) 239-28-72), e-mail: tseu@tseu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «30» 08 da tarqatildi.
(2023-yil «30» 08 dagi 38 raqamli reyestr bayonnomasi)



S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.D. Xajiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi,
dotsent

U.V. Galurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotidagi global beqarorlik sharoitida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, jumladan, yetakchi tarmoq mahsulotlariga yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi dinamikani to'g'ri prognozlashning ahamiyati ortib bormoqda. "Jahon miqyosida aholining o'sishi tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy iste'moli bo'lgan umumiy oziq-ovqat iste'moli 1,4 foizga, global yalpi ichki mahsulot yillik o'rtacha o'sishi 2,7 foiz darajasida prognoz qilinmoqda"¹. Ushbu omillarning ta'siri tufayli oziq-ovqat mahsulotlariga talabning ortishi past va o'rta daromadli mamlakatlarda kuzatilayotgan bo'lsa, yuqori daromadli mamlakatlarda esa aholining sekin o'sishi va aholi jon boshiga ayrim oziq-ovqat mahsulotlar iste'molining to'yinganligi bilan cheklanmoqda. Mazkur holatda agrar sohaning rivojlanishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini oshirish va shu asosda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda so'nggi yillarda agrar sohaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini iqtisodiy baholash masalalari bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Agrar sohaning mamlakat oziq-ovqat xavsizligini ta'minlash, mavsumiy bandlik darajasi hamda mamlakatning barqaror rivojlanishida ahamiyatini oshirish, so'nggi yillardagi global iqtisodiyotning COVID-19 pandemiyasidan keyingi tiklanishi jarayonida xalqaro xavfsizlik qoidalarining buzilishi oqibatida vujudga kelayotgan noaniqliklarni bartaraf etish, sohani rivojlantirish va ular orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini statistik baholash, o'zaro bog'liqlik modellarini ishlab chiqish natijasida prognoz variantlarini taqdim etish bu boradagi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda agrar sohani samarali rivojlantirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlariga erishish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, "Qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligining yillik o'sishini kamida 5 foizga yetkazish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tavsiyalar va asosiy makroiqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish, oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, qishloq xo'jaligida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish va sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish"² kabi qator vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarning ijrosini samarali tarzda ta'minlash maqsadida agrar sohaning rivojlanishini mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sirini ekonometrik modellashtirish orqali qo'yilgan marralarga erishish yuzasidan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish zaruriyati mazkur mavzuning dolzarbligini belgilab beradi.

¹ Manba: OECD-FAO Agricultural Outlook 2022-2031.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.- www.lex.uz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF–5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 7-iyundagi PQ–273-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 – 2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda mavzuga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Qishloq xo‘jaligini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va samaradorligini oshirishning nazariy-uslubiy masalalari, agrar soha faoliyatini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan bog‘lab o‘rganish va ekonometrik modellashtirish masalalari xorijlik olimlardan A.Al-Haboby, J.Beckman, C.Brodersen, A.Bruggeman, A.Dreesman, L.David, I.Ferto, F.Bartolini, A.Countryman, L.Barath, I.Ferto, E.Giannakis, A.Raihan, A.Tuspekova, J.H.Stock, M.Watson, T.J.Elliott, J.Rothenberg Stock, P.C.Phillips, P.Perron, M.S.Meo va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan³.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan qishloq xo‘jaligi va mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga bog‘lanish faoliyatini statistik o‘rganish hamda ularni ekonometrik modellashtirish muammolari A.V.Afanaseva, A.N.Seredkin, B.I.Smagin, G.L.Vinogradova, I.I.Lenkov, N.A.Degtyareva, T.M.Yarkova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan⁴.

³ A.Al-Haboby, 2021. Agriculture for development in Iraq? Estimating the impacts of achieving the economical growth; Beckman, J., Countryman, A., 2021. The Importance of Agriculture in the Economy: Impacts from COVID-19. *Am. J. Agric. Econ.* 103 (5), 1595–1611. <https://doi.org/10.1111/ajae.12212>; David L. Debertin. *Agricultural Production Economics* (Second Edition, Amazon Createspace 2012) is a revised edition of the Textbook. 431 p. // Alexandri, C., Luca, L., 2014. Implications of agrarian structures upon the agricultural supply in Romania. 1st International Conference 'Economic scientific research – theoretical, empirical and practical approaches' ESPERA 2013, 8, 17–24. // L.Barath, I.Ferto Productivity and convergence in European agriculture // E.Giannakis, A.Bruggeman The highly variable economic performance of European agriculture // Raihan A., Tuspekova A. The nexus between economic growth, renewable energy use, agricultural land expansion, and carbon emissions: new insights from Peru // J.H.Stock, M.W.Watson A simple estimator of cointegrating vectors in higher order integrated systems // G.Elliott, T.J.Rothenberg, J.H.Stock. Efficient tests for an autoregressive unit root // P.C.Phillips, P.Perron Testing for a unit root in time series regression // M.S. Meo, V.J. Khan, T.O. Ibrahim, S. Khan, S. Ali, K. Noor, Asymmetric impact of inflation and unemployment on poverty in Pakistan : new evidence from asymmetric ARDL cointegration, *Asia Pacific, J. Soc. Work Dev.* 00 (2020) 1–16

⁴ А.В.Афанасьева, Статистическая оценка динамики производства сельскохозяйственной продукции в системе государственного регулирования продовольственного рынка. Автореф. дисс. на соиск.канд. экон. наук. – Самара. 2008. –26 с.; А.Н.Середкин, Виноградова Г.Л. Моделирование показателей эффективности управления системой сельскохозяйственных потребительских кооперативов различных уровней; Б.И.Смагин, Экономический анализ и статистическое моделирование аграрного производства. Монография. / – Мичуринск: Изд-во МичГАУ, 2007. – с.153.; Н.А.Дегтярева, Эконометрические модели анализа и прогнозирования: монография / - Челябинск: Цицеро, 2017.-170 с.; Леньков И.И. «Моделирование прогнозирования экономики агропромышленного комплекса» - Монография. Минск: БГАТУ -2011 г. 228 с.;

O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini o‘rganish, fermer xo‘jaliklarini ijtimoiy-iqtisodiy tashkil etish, mamlakat makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini boshqarish va samaradorligini oshirish hamda ekonometrik modellashtirish masalalari T.Sh.Shodiyev, B.B.Berkinov, N.M.Maxmudov, I.Xabibullayev, A.Abdug‘aniyev, X.D.Xujakulov, M.X.Mamatkulov, N.X.Rashitova, B.K.Utanov⁵ va boshqa olimlar tomonidan o‘rganilgan hamda tadqiq etilgan.

Yuqorida bayon etilgan ilmiy tadqiqot ishlari agrar iqtisodiyotning mamlakatlar makroiqtisodiy jarayonida o‘ziga xos o‘rin tutib, qishloq xo‘jaligi faoliyati samaradorligi muammolarini nazariy va amaliy jihatdan hamda ularni modellashtirish yuzasidan ilmiy o‘rganishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Lekin mazkur tadqiqotlarda asosiy e‘tibor agrar sohaning rivojlanishi yoki ma‘lum bir makroiqtisodiy ko‘rsatkichga qaratilib, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish sharoitida ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqligining ekonometrik tadqiqotlarini tashkil etish masalalariga yetarlicha e‘tibor berilmaganligi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent moliya institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Moliya bozorlarini tahlil qilishda statistik modellashtirish va bashoratlash metodlarini qo‘llashni uslubiy asoslari va amaliy jihatlari” mavzusidagi (2020-2023 yy.) amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agrar soha rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini ekonometrik modellashtirish masalalarini ilmiy tadqiq etish hamda uning uslubiyatini takomillashtirish yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mamlakat agrar sohasini rivojlantirishda xalqaro tasniflash asosida makroiqtisodiy bog‘liqlik ko‘rsatkichlarni tadqiq etish;

respublikada agrar sohaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini modellashtirishning nazariy-uslubiy va ilmiy asoslarini tadqiq etish;

Яркова, Т.М. Макроэкономическое планирование и прогнозирование: учебное пособие. – Пермь. ИПЦ «Прокрость», 2018. – 292 с.

⁵ Т.Ш. Шадиев. Проблемы моделирование развития сельского хозяйства (на примере Узбекистана). Дисс.док.эк.наук. -М.: 1988. – 380 с.; Б.Б.Беркинов, Л.Ф. Амиров Методические аспекты анализа и оценка эффективности финансово-экономических показателей отраслей аграрного сектора Узбекистана / Journal of Economics. – 2022. №2.; Н.М. Махмудов. Моделирование производственно-экономических процессов Хлопка перерабатывающих отраслей: Автореф. дисс. док. эк. наук. -Т.: ТГЭУ. 1993. - 36 с.; I.Xabibullayev. Ekonometrik modellashtirish. Darslik. -Т.: „Taxriri nashriyot“, 2022. -250 b.; A. Abdug‘aniyev. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. –Т.: Adabiyot jamg‘armasi. 2007. – 340 b.; X.D. Xujakulov va boshqalar. Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o‘zgarishlarning samarali yo‘llarini statistik metodlar asosida ishlab chiqish. Monografiya. – Т.: IQTISOD-MOLIYA, 2018. -152 b.; B.X. Mamatkulov. Fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari samaradorligini statistik baholash usullarini takomillashtirish (O‘zbekiston Respublikasi fermer xo‘jaliklari misolida). DSc dar. olish uchun yozil. diss. - Т.: TDIU, 2023.-185 b.; N.X. Rashitova. Agrar sektorda tuzilmaviy siljishlarni statistik o‘rganish usullari. Iqt. fan. nom. ilm. dar. olish uchun yozil. diss. –Т.: TDIU, 2010.–159 b.; B.K. Utanov. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyati samaradorligini ekonometrik modellashtirish. PhD dar. olish uchun yozil. diss. –Т.: O‘z.stat. qoshidagi KMOVSTI, 2020.–136 b.

respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari faoliyatining rivojlanish jarayoni va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

mamlakat agrar sohasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni rivojlanishiga ta'sirini statistik baholash hamda prognozlash metodologiyasi va ma'lumotlar bazasini takomillashtirish;

mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari bilan agrar soha o'rtasidagi bog'liqlikning ekonometrik modellarini ishlab chiqish hamda ularning prognoz variantlarini taqdim etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari hamda agrar soha faoliyati tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini mamlakat agrar soha va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimiga ta'sirini ekonometrik modellashtirishni aniqlash bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qishloq xo'jaligiga oid ma'lumotlarni olishda statistik kuzatishning so'rovnoma usuli, indeks, ekonometrik modellashtirish, Maximum likelihood, SEM, kointegratsion bog'liqlikning VAR va VEC usullari, prognozlashning ARIMA metodi, Panel modellashtirish kabi metod va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida tomorqa yer egalari tomonidan yaratilgan mahsulotlar ulushi hamda so'rovnomaga jalb qilingan respondentlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan yalpi talabini aniqlash orqali tomorqadan foydalanuvchi uy xo'jaliklari iqtisodiy faoliyat natijalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar shakllanishiga ta'sirini baholash taklifi asoslangan;

agrar soha rivojlanishining bandlikni oshirish hamda inflyatsiyani targetlash jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka asoslangan ekonometrik modellarni ishlab chiqish tomorqa xo'jaliklarining samarali faoliyati shart-sharoitlarini ta'minlash hamda rag'batlantirish omillarini kiritish orqali takomillashtirilgan;

yalpi ichki mahsulot tarkibidagi tarmoq va sohalarning yalpi qo'shilgan qiymat tarkibidagi o'zgarishlarini uzoq muddatli kointegratsion aloqadorligiga ko'ra baholash orqali agrar sohada eksportning ulushini doimiy rag'batlantirishning uzoq muddatli omil sifatidagi ta'siri aniqlangan;

O'zbekiston Respublikasida agrar sohaning ekstensiv, intensiv va raqamli texnologiya ta'siridagi rivojlanishining 2027-yilga qadar prognoz ssenariylari ARIMA modellari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublikada agrar sohaning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini o'zaro aloqadorligini tahlil qilish algoritmi taklif qilingan;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda tomorqa yer egalari ulushi hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan yalpi talabni so'rovnoma asosida aniqlash mexanizmi ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan so'rovnoma mamlakatdagi uy xo'jaliklari hamda tomorqada mahsulot yetishtiruvchilar o'rtasida savollar ketma-ketligi tayyorlangan;

respublikaning agrar sohasi iqtisodiy faoliyat umumtasniflagich (IFUT-2) klassifikatsiyasi orqali tadqiq qilinib, empirik ma'lumotlar statistik tahlil qilingan;

mamlakat makroiqtisodiy ko'rsatkichlari sifatida YaIM, sanoat ishlab chiqarishi, bandlik, iste'mol narxlari indeksi, eksport kabi ko'rsatkichlar statistik usullar bilan tahlil qilingan;

SEM-modelini qo'llash orqali natijaviy ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillarni modellashtirganda qishloq xo'jaligini o'sish sura'ati 1 % bo'lishi bandlikni 1,8 % ga ortishiga hamda inflyatsiyani 0,16 % kamayishi hisoblangan;

VEC modeli asosida mamlakat yalpi ichki mahsulot tarkibidagi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, sanoat hamda eksportlarni yalpi qo'shilgan qiymat tarkibidagi o'zgarishlarini baholash uzoq muddatli kointegratsion aloqadorligi modellashtirilganda, bog'liqligi 1,4 % yaxshilanib borishi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya natijalari va xulosalarining ishonchliligi muallif tomonidan tadqiqot ishiga doir xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy-nazariy, metodologik tadqiqotlarga asoslanilgani, foydalanilgan axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning ishonchliligi ularning hududlarda agrar soha va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan ustuvor yo'nalish va dasturlarga qay darajada muvofiqligi hamda tegishli xulosalar mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etishga qabul qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan agrar soha va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar qabul qilish, sohadagi muammolarni bartaraf etish va ularni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, soha bo'yicha statistik hisob-kitoblarni olib borish hamda rivojlantirish istiqbollari modellashtirish jarayonlarini takomillashtirishda uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan agrar soha va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlikni statistik tadqiq qilish hamda ekonometrik modellashtirishda, oliy ta'lim muassasalarida "Statistika", "Qishloq xo'jaligi statistikasi", "Ekonometrika", "Amaliy ekonometrika" kabi fanlarning o'quv dasturlarini ishlab chiqishda, ularni takomillashtirishda va ta'lim jarayonida qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agrar sohani makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini ekonometrik modellashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida tomorqa yer egalari tomonidan yaratilgan mahsulotlar ulushi hamda so'rovnomaga jalb qilingan respondentlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan yalpi talabini aniqlash orqali tomorqadan foydalanuvchi uy xo'jaliklari iqtisodiy faoliyat natijalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlar shakllanishiga ta'sirini baholash taklifi O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi amaliyotiga joriy qilingan

(O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashining 2022-yil 30-noyabrdagi 01/01-3180-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tomorqa yer egalarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan yalpi talab bo'yicha tezkor, ishonchli va birlamchi ma'lumotlarni olish imkoni yaratilgan;

agrar soha rivojlanishining bandlikni oshirish hamda inflyatsiyani targetlash jarayonlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka asoslangan ekonometrik modellarni ishlab chiqish tomorqa xo'jaliklarining samarali faoliyati shart-sharoitlarini ta'minlash hamda rag'batlantirish omillarini kiritish orqali takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublika qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublika qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 07/05-659-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq xo'jaligini o'sish sura'ati 1 foiz bo'lishi bandlikni 1,8 foizga ortishiga hamda inflyatsiyani 0,16 foiz kamayishiga xizmat qilgan;

yalpi ichki mahsulot tarkibidagi tarmoq va sohalarning yalpi qo'shilgan qiymat tarkibidagi o'zgarishlarini uzoq muddatli kointegratsion aloqadorligiga ko'ra baholash orqali agrar sohada eksportning ulushini doimiy rag'batlantirishning uzoq muddatli omil sifatidagi ta'sirini aniqlash taklifi O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 07/05-659-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, sanoat hamda eksportlarni uzoq muddatda bir-biriga kointegratsion bog'liqligi 1,4 foizga yaxshilanib borish imkoniyati yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasida agrar sohaning ekstensiv, intensiv va raqamli texnologiya ta'siridagi rivojlanishining 2027-yilga qadar ARIMA modellari asosida ishlab chiqilgan prognoz ssenariylari O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2023-yil 17-fevraldagi 07/05-659-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur prognoz ssenariylaridan foydalanish natijasida respublika qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmini monitoring qilish jarayonini takomillashtirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 12 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi e'tirof etgan ilmiy jurnallarda 2 ta, xorijiy ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola hamda xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlarida 4 ta ma'ruza tezislari nashr etilgan.


Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.

Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 132 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo‘lib, uning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati izohlangan, natijalarni amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Agrar sohani makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sirini ekonometrik modellashtirishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobi agrar soha rivojlanishining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orasidagi o‘zaro aloqadorliklarni iqtisodiy-statistik tadqiq etishga bag‘ishlangan bo‘lib, agrar sohani makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sir etish mexanizmlari tadqiq qilingan hamda ilmiy tadqiqotda ekonometrik modellashtirishni qo‘llashning ilmiy-uslubiy asoslari xorij tajribalari asosida o‘rganilgan.



1-rasm. MSFTda tasniflash obyektlarining sohalarga bo‘linishi⁶

Respublikamizda 2021-yil 1-dekabrda boshlab “O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika faoliyatini tasniflagichi MSFT” asosida yuritilib kelinmoqda. MSFTning xalqaro tasnifi (Classification of statistical activities - CSA, Rev.1) asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, ushbu tasniflagich milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda milliy statistika tizimi faoliyatining alohida yo‘nalishlari va jamoaviy tasnif guruhlarini qo‘shgan holda CSA, Rev.1ning umumiy tuzilishi va

⁶ Muallif ishlanmasi.

uslubiyatiga amal qiladi. Shu bilan birga, MSFT guruhlarining xalqaro tasnifga muvofiqligini aniqlash uchun MSFT jadvali CSA, Rev.1 tegishli kodlari ustuni bilan to'ldirilib quyidagicha sohalarga bo'linadi (1-rasm). Bizning tadqiqot obyektimizga tegishli ma'lumotlar mazkur tasniflagichning 2- iqtisodiy statistika deb nomlangan sohasiga tegishli bo'lib, ma'lumotlar o'z navbatida 2.1. Makroiqtisodiy statistika hamda 2.4. Tarmoqlar statistikasi bo'limidagi 2.4.1. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi deb nomlangan bandlaridan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning "Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonining 3-yo'nalishida "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" yo'nalishining 21-maqсадida Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni - 1,6 barobar (1750 dollardan 2800 dollarga) va 2030-yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish uchun zamin yaratish belgilangan⁷. Bizningcha, mazkur marraga yetish uchun respublikada makroiqtisodiy ko'rsatkichlar barqaror tendensiyaga ega bo'lishi kerak. Ma'lumki, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mamlakatning asosiy iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkich hisoblanadi.

1-jadval

YaIMda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i ulushining o'zgarishi (foizda)⁸

Ko'rsatkichlar	Yillar												2022-yilda 2011-yilga nisbatan
	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
YaIMning o'sish sur'ati	107,5	107,1	107,3	106,9	107,2	105,9	104,4	105,4	105,7	101,9	107,4	105,7	187,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida yaratilgan qo'shilgan qiymatining:													
a) o'sish sur'ati	106,1	107,0	106,4	106,0	106,1	106,2	101,2	100,3	103,1	102,9	104,0	103,6	157,8
b) YaIMdagi ulushi	33,5	32,6	31,0	31,8	32,1	32,1	32,2	29,7	26,6	26,8	26,5	25,1	-
YaIMning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligiga nisbatan ilgari ilash koeffitsiyenti	101,3	100,1	100,8	100,9	101,0	99,7	103,2	105,2	102,8	99,2	103,3	102,0	118,9

Mazkur ko'rsatkich haqida gap ketganda avvalo respublika yalpi ichki mahsuloti (YaIM) tushuniladi. Mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanish jihatidan mustaqillikning ilk davrlarida respublika YaIMda qishloq xo'jaligi tarmog'ining


⁷ PF–60-son 28.01.2022. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida (lex.uz).

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif hisoblamasi. 2022-yil uchun dastlabki ma'lumot.

ulushi yuqori boʻlganligi sababli jahon hamjamiyatida agrar mamlakat sifatida tan olingan (1-jadval). Lekin bugungi kunda respublikamiz agrar mamlakat emas, aksincha industrial-agrar mamlakat maqomini olgan, chunki hozirgi davrda mamlakatimiz faqatgina qishloq xoʻjalik mahsulotlarini yetishtirish bilan cheklanmay, balki uni qayta ishlab sanoatlashgan mahsulotlar ham ishlab chiqarmoqda. Jumladan, 2011-yilda mamlakat YaIM hajmida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligining ulushi 33,5 foizni, 2022-yilga kelib dastlabki hisob-kitoblarga koʻra 25,1 foizni tashkil qilgan.

1-jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, dastlabki maʼlumotlar boʻyicha hisoblanganda 2022-yilda 2011-yilga nisbatan mamlakat YaIMning oʻzgarish surʼati 187,6 foizni tashkil qilgan boʻlsa, xuddi shu davrda qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida yaratilgan YaQQning oʻsish surʼati 157,8 foizga teng boʻlgan. Natijada respublika YaIMning qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligiga nisbatan ilgirilash koeffitsiyenti 1,189 martaga yuqori boʻlib, YaIMda agrar sohaning salmogʻi esa 2022-yilda 2011-yilga nisbatan 8,4 foiz bandga pasaygan.

Dissertatsiya ishida xalqaro tajriba asosida agrar soha bilan birgalikda makroiqtisodiy koʻrsatkichlar sifatida respublikamiz miqyosida yalpi ichki mahsulot, mamlakatning sanoat tarmogʻi, isteʼmol narxlari indeksi (inflyatsiya darajasi), bandlik darajasi hamda eksport salohiyati koʻrsatkichlarining oʻzgarish dinamikasi oʻrganilgan.



2-rasm. Agrar soha va makroiqtisodiy koʻrsatkichlarning oʻzaro bogʻliqlik gipotezasi⁹

⁹ Muallif ishlanmasi.

Dissertatsiya ishida yuqoridagi bog'liqlik gipotezasi SEM modeli orqali mamlakatning emperik ma'lumotlari asosida ekonometrik modellashtirilgan. Ma'lumki, SEM modeli eng kichik kvadratlar usuli asosida emas, balki eng katta ehtimolliklar orqali baholanishi bilan boshqa modellardan ajralib turadi. Bu model Maximum likelihood usuli orqali ishlanib, dastlab Karl Fridrix Gaus, Pier Simon Laplas, Torvard Tillar tomonidan ilmiy izlanishlarda qo'llanilgan¹⁰. Biroq bu usulning keng qo'llanilinishi 1912-yildan 1922-yillar kesimida amalga oshirilgan. Ekonometrikaning yanada rivojlanishiga o'z hissasini qo'shgan Ronald Fisher o'z tadqiqotlarida ushbu usulning afzalliklarini, shuningdek, eng kichik kvadratlaridan farqli tomonlarini izohlagan¹¹.

Maximum likelihood estimation usulida ko'rsatkichlarni ehtimollik funksiyasi (log likelihood function) orqali topiladi.

Log likelihood function y_i uchun quyidagi ko'rinishga ega:

$$P(y_i = 1)^{y_i} P(y_i = 0)^{1-y_i}$$

Bunda agar $y_i = 1$ bo'lganda $P(y_i = 1)^1 P(y_i = 0)^{1-1} = P(y_i = 1)$, agar $y_i = 0$ bo'lganda $P(y_i = 1)^0 P(y_i = 0)^{1-0} = P(y_i = 0)$ bo'ladi.

Umumiy ko'rinishda log likelihood function:

$$\sum_{i=1}^n (y_i * \log P(y_i = 1) + (1 - y_i) * \log P(y_i = 0))$$

Agar $P(y=1)$ ning o'rniga $G(x\beta)$ keltirib keltirib qo'ysak, log likelihood funksiyasi ham o'zgaradi:

$$\sum_{i=1}^n (y_i * \log(G(x\beta)) + (1 - y_i) * \log(1 - G(x\beta)))$$

β koeffitsiyent ushbu tenglamani maksimumga intiltirish orqali topiladi. Shunday qilib maximum likelihood estimation usuli asosida β koeffitsiyent topish uchun quyidagi tenglamani maksimumga ega bo'lgandagi holatini ifodalaydi:

$$\max \sum_{i=1}^n (y_i * \log P(y_i = 1) + (1 - y_i) * \log P(y_i = 0))$$

Maximum likelihood estimation metodi asosida β koeffitsiyentning statistik ahamiyatli ekanligi Wald test, score test, likelihood ratio test bilan tekshiriladi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda agrar soha rivojlanishi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ekonometrik modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida, agrar soha va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi faoliyatini ekonometrik modellashtirishda statistik kuzatish metodologiyasi va ma'lumotlar bazasi takomillashtirilgan.

Tadqiqot ishimizda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi hamda ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'sish sur'atlarining taqqoslama jadvali shakllantirilgan (2-jadval).

¹⁰ Edgeworth, Francis Y. (Sep 1908). "On the probable errors of frequency-constants". *Journal of the Royal Statistical Society*. 71(3): 499–512. doi:10.2307/2339293. JSTOR2339293.

¹¹ Wilks, S.S. (1938). "The large-sample distribution of the likelihood ratio for testing composite hypotheses". *Annals of Mathematical Statistics*. 9: 60–62. doi:10.1214/aoms/1177732360.

Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi hamda ayrim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zgarish sur‘atlari dinamikasi (foizda)¹²

Ko‘rsatkichlar	2010	2015	2020	2022	2021-yil 2010-yilga nisbatan
Sanoat tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymatining o‘shish sur‘ati	105,9	105,3	100,9	105,2	194,5
Qurilish tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymatining o‘shish sur‘ati	104,2	118,8	109,5	106,6	407,4
Xizmatlar tarmog‘ida yaratilgan qo‘shilgan qiymatning o‘shish sur‘ati	109,6	107,6	101,1	108,5	222,6
Ish bilan band aholining o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur‘ati	100,9	101,8	102,3	102,7	119,7
Iste‘mol narxlari indeksi, o‘tgan yilga nisbatan	107,3	105,6	111,1	112,3	285,1
Eksport hajmining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati	110,6	92,3	86,5	113,4	160,2
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida yaratilgan qo‘shilgan qiymatining o‘shish sur‘ati	106,1	106,1	102,9	103,6	167,4
Sanoat tarmog‘ining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti	99,8	99,3	98,1	101,5	116,2
Qurilish tarmog‘ining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti	98,1	112,0	106,4	102,9	243,4
Xizmatlar tarmog‘ining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga nisbatan ilgarilash koeffitsiyenti	103,2	101,4	98,3	104,7	133,0

Ma‘lumki, iqtisodiyotning umumiy rivojlanishi sanoat va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoat rivojlanishi bilan ta‘minlansa, xuddi shu kabi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish ham xom-ashyo vazifasini bajaruvchi qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulotlar orqali izohlanadi. Ko‘plab rivojlangan davlatlar sanoatlashgan iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligini muhimligini anglagan holda ushbu tarmoqni rivojlantirmoqdalar. 2-jadval bo‘yicha hisoblangan ma‘lumotlar shundan dalolat beradiki, 2022-yilda 2010-yilga nisbatan sanoat tarmog‘i mahsulotining fizik hajm indeksi 194,5 foizni, qurilish tarmog‘ida 407,4 foizni, xizmatlar tarmog‘ida 222,6 foizni, mamlakatda ish bilan band aholining o‘zgarishi 119,7 foizni, iste‘mol narxlari indeksi 285,1 foizni, eksport hajmining o‘shish sur‘ati esa 160,2 foizni tashkil qilgan. Natijada respublika tarmoqlarining qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligiga nisbatan sanoat tarmog‘i 1,162 martaga, qurilish tarmog‘i 2,434 marta hamda xizmatlar tarmog‘i 1,33 martaga ilgarilagan. Mavjud holat boshqa tarmoqlarga qaraganda qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmog‘ida ko‘rsatkichlar sustligidan dalolat berib kelmoqda.


Agrar soha va makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni statistik baholash, rivojlanish jarayonini va unga ta‘sir etuvchi omillarning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash va ekonometrik modellashtirish hamda

¹² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif hisoblamasi. 2022-yil uchun dastlabki ma‘lumot. Jadvaldagi 4 hamda 6-ustun ma‘lumotlari 2022-yil uchun statistik hisoblash natijasi.

prognozlash iqtisodiy-matematik va ekonometrik modellashtirish usullarini qo'llashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha barcha 14 hududdan faqatgina Toshkent shahri uchun qishloq xo'jaligi bo'yicha statistik ma'lumotlar shakllantirilmaydi.


Boxplot grafigi asosidagi ma'lumotlar bo'yicha hududlardagi qishloq xo'jaligi o'zgarishlarini ikki guruhga bo'lishni taklif qilamiz. Birinchi guruhda oxirgi yigirma yillikda o'rtacha o'sish kuzatilgan Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan hududlarini kiritishni taklif qilamiz. Mazkur hududlarda o'rtacha o'sish 100-110 foizgacha. Ikkinchi guruhga qolgan yetti hudud kiradi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlarida 2010 – 2022-yillardagi qishloq xo'jaligining rivojlanish tendensiyasi¹³

Tadqiqot jarayonida YaIMning 2017-yilda qo'shimcha o'sishi 4,4 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkichga erishishda tarmoqlarning hissasi, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 0,5 foiz bandga, sanoat tarmog'i 1,0 foiz bandga, xizmatlar 2,3 foiz bandga, qurilish 0,3 foiz bandga o'zgargan bo'lsa, 2022-yilda mos ravishda YaIMning qo'shimcha o'sishi 5,7 foizni tashkil qilib, tarmoqlar mos ravishda, 0,84, 1,29, 3,21 hamda 0,42 foiz bandlarga o'zgargan (4-rasm). Hisob-kitob natijalariga ko'ra mamlakatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining yillar kesimida YaIMning o'sishiga ta'siri 2017-yilda 11,4 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022-yilda 14,7 foizga ta'sir qilgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.




4-rasm. YalMning yillar kesimida o'sish sur'ati va unga tarmoqlar va sohalarning ta'siri darajalari, foizda¹⁴


Tadqiqot doirasida mavzuni yoritishga xizmat qiluvchi uchta so'rovnomani ishlab chiqilib, respondentlar o'rtasida tasodifiy tanlanma kuzatuv asosida mamlakat hududlari ma'lumotlari jamlangan hamda agrar sohani makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bog'liqligi tahlil qilingan.

Barcha so'rovnomalarda ikki yuzdan ortiq respondentlar ishtirok etgan bo'lib, birinchi so'rovnomani aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini baholash maqsadida amalga oshirilgan. So'rovnomada tadqiqot doirasiga doir o'nta savol mavjud bo'lib, savollar aholining ushbu sektor mahsulotlariga talabini baholagan.

Tadqiqot asosida uy xo'jaliklaridagi mavjud yerlar turlicha ekanligi aniqlandi, respondentlar javobiga asosan 4 sotixgacha bo'lgan tomorqa maydonlari 20 foizgacha, 6 sotix tomorqa maydonlari 3 foiz, 6-10 sotixgacha tomorqa maydonlari 16,2 foiz, 10 sotixdan ko'proq tomorqa maydonlari 44,4 foiz. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish uchun yetarli tomorqa maydonlari mavjud ekan.



5-rasm. Tomorqadan olinadigan bir yillik o'rtacha daromad




6-rasm. Tomorqadan yuqori daromad olishga bo'lgan asosiy to'siqlar

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Tomorqa yerlardan unumli foydalanish ulardan qanday maqsadda foydalanishga bog'liq. Shu sababdan mazkur savolnomada yuqoridagi holatni ifodalovchi savol qo'shilgan. 200 dan ortiq respondentlar javoblariga asosan 58,4 foiz holatda o'zining iste'moli uchun mahsulotlar yetishtirish maqsad qilingan bo'lsa, 39,2 foiz respondentlar o'zining iste'moli hamda bozorga sotish maqsadida tomorqa yerlaridan foydalanishi kuzatilgan. Faqatgina 2,4 foiz javoblarda tomorqa maydonlaridan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini bozorga sotish maqsadida yetishtirilishi aytilgan. Natijada bozorlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chiqarish va u orqali daromad olish kamayib ketayotganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur holatni ifodalash uchun ishlab chiqilgan savolnomaga "Tomorqadan olinadigan bir yillik o'rtacha daromad" savoli qo'shilgan bo'lib, mazkur savol natijasida respondentlarning 78,9 foiz tomorqa maydonidan olinadigan bir yillik o'rtacha daromadni 10 milliondan kam ekanligi aniqlangan bo'lsa, 14,5 foiz javoblarda o'rtacha bir yillik daromad 10 milliondan 20 milliongacha bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Eng kam ulush 6,6 foizda tomorqa maydonidan olinadigan o'rtacha bir yillik daromad 20 mln. so'mdan ko'proqni ko'rsatgan (5-rasm).

Ushbu savolnoma orqali nafaqat tanlanma ma'lumotlarni aniqlash, balki tomorqadan foydalanishga to'siq bo'layotgan muammolarni topishni ham bosh maqsadlardan biri sifatida olganmiz. Tomorqadan yuqori daromad olishga bo'lgan asosiy to'rtta to'siqdan eng katta to'siqlardan biri suv bilan bog'liq muammodir. Suv bilan bo'lgan muammo deyarli har ikkitadan bitta tomorqada kuzatilgan. Tomorqadan foydalanish uchun yetarli bilim, tajribaga ega bo'lmaslik ham asosiy muammolardan biridir. Respondentlarning 22,9 foizi tomorqadan qanday foydalanish bo'yicha bilim va tajribaga ega emasligi, 9,6 foiz va 18,7 foizi ulush mos ravishda o'g'it bilan hamda mablag' bilan bog'liq muammolar borligini aytib o'tishgan (6-rasm).



7-rasm. Tomorqangizdan olinadigan daromadni oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar

